

EVFEMIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQOTLARDAGI MAVQEYI

Sharifjonova Sarvinoz Nodirbek qizi

Namangan davlat univetsiteti

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi

2-bosqich magistranti

Ma'lum bir xalqning tilidagi madaniylik darajasini bilish uchun evfemik tarkibini aniqlash lozim. Evfemizmlar insonlar nutqidagi madaniy me'yorni ta'minlashga xizmat qiladi. Evfemizmlarning qachon paydo bo'lgani va shakllana boshlagani to'g'risida aniq manba mavjud emas, lekin ilmiy jihatdan o'rganilishi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu mavzuda izlanishimiz uchun dastlab xalq og'zaki ijodiga murojaat qilish zarur. Folklor namunalari evfemik birliklar ko'p qo'llangan bo'lib, ular hozirgi kunda ham nutqimizda faol qo'llanadi.

Evfemizmlar faqat o'zbek tilshunoslari tomonidan emas, balki boshqa xalqlarning tilshunoslari tomonidan ham tadqiq qilingan va turli xil ta'riflar berilgan. Xususan, J. Vandries fikriga ko'ra: "Evfemizm—bu man etilgan lug'atning muloyimroq va madaniyroq formasi". L.A. Buxalovskiy esa "Evfemizmlar yomon fikr uyg'otadigan narsa yoki hodisaning asl nomini almashtirish va ular haqida so'z orqali yovuz kuchlarni chaqirish "xavfi"ni tug'dirmay gapirish, ...hammadan oldin "xavfning oldini olish" formulasidir", --deb yozadi. N.S. Baschayev evfemizm termini ostida salbiy mohiyatli predmet yoki voqeliklarni yumshatib tasvirlashni tushunamiz, -- deb yozadi.

O'zbek tilshunoslaridan A. Omonturdiyev, N. Ismatullayev, O.T. O'rinova, T.O'rinovlar o'zbek tildagi evfemizmlarni tadqiq qilishgan.

A. Omonturdiyev evfemik nutq tafakkurning inson aql-zakovatining oliy formasi, "qaymog'i", voqelikning pardozi, "parda ichiga olingan", beozorlashtirilgan, yumshatilgan obrazli ifodasidir, deb ta'rif beradi.

Evfemizmlar— nutqimizdagi ma'nosi qo'pol bo'lgan so'zlarni chiroyli tarzda ifoda etuvchi birliklar. Ular disfemizmlarning aksi hisoblanib, nutqingizdagi inson ruhiyatiga salbiy ta'sir etuvchi so'zlarning ma'nolarini mayinroq tarzda ifodalab beradi. Bunday birliklarning paydo bo'lishi til egalarning yashash tarzi, tarixi, kelib chiqishi bilan bog'liq, albatta.

Tilimizdagi barcha birliklarni nazariy jihatdan o'rganilmay, amaliy tomonini ham o'rganish zarur. Lingvokulturologiya-til va madaniyat o'rtasidagi aloqalarni o'rganuvchi tilshunoslikning yangi tarmog'i hisoblanadi. Tilda mavjud bo'lgan barcha birliklarni faqat nazariy jihatdan farqlash yaramaydi. Uni amaliy jihatdan farqlash mumkin. Tilning boyligi uning tarkibida mavjud bo'lgan madaniy birliklar bilan belgilanadi. Evfemizmlarni biz tilimizda mavjud bo'lgan madaniy boyluklar deb qabul qilishimiz mumkin. Lingvokulturologik tadqiqotlarning asosiy maqsadi tildagi milliylikni ko'rsatib berish va tadqiq qilishdir. Lingvokulturologik tadqiqotlar obyekt sifatida xalq og'zaki ijodi namunalari, milliylikni aks ettiruvchi badiiy asarlarni olishimiz mumkin. Evfemizmlarning

lingvokulturologik tadqiqotlardagi mavqeyi yuqori hisoblanadi, chunki evfemizmlar nutqiy go'zallikni ta'minlovchi vositalardir.

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” asaridan olingan ushbu parchada berilgan evfemik birliklarni nutqimizdagi madaniy me'yorni ta'minlashga xizmat qilishini ko'rishimiz mumkin.

Hoji entikdi va:

--Rajabbeknikida bo'lgan majlisni sen bilasanmi?..-deb so'radi.

--Bilaman.

--Bilsang,-dedi hoji,--manim ustimga mundog' tuhmat orttirishdan uyal,bola!

--Rajabbeknikida bu kengash bo'lmag'anmidi?

--Bo'lg'an edi.

--Bo'lg'an bo'lsa,tag'in nega o'zingizni **quruqqa olasiz?**

Yusufbek hoji boladan kulgandek qilib iljaydi.

--Ba'zi **yengil muhokamalar**ing onangnikidan qolishmaydir,Otabek!--dedi.--

Majlisdan xabaring bo'lg'an bo'lsa,kim qaysi fikrda qolg'anini ham bilarsan?

--Yo'q.

--Majlisda nimadan bahs qiling'anini-chi?

-Majlisda nima muzokarasi bo'lg'anini ham bilmayman va lekin o'sha majlis faqat qipchoqlarga **qatli om uchun yig'ilgan**. ekan deb kecha ishonдим.Majlisingiz a'zolarining sizdan boshqasi nega yigit to'plab,Qo'qonga ketdilar va ular Qo'qonga yetmaslaridanoq nega bu vahshat boshlandi?

--Bu muhokamang to'g'ri.Ammo otangni ham shu **jonivorlar** orasig'a qo'shib o'ltirishing **qisqalig'ingdir**,-dedi.Ko'ziga yosh oldi.-O'zing o'ylab ko'r, o'g'lim, **o'z qo'limiz bilan o'zimiznikini kesishimizdan** mamlakat uchun qanday foyda bor? Basharti men bu vahshatka ishtirok qilg'an bo'lsam,qaysi aql va qanday manfaatni kuzatib qo'shilishqan bo'laman?Agarda manim yurt so'ramoqqa va shu vosita bilan boylik orttirmoqqa orzum bo'lsa,boshqalardan ham ko'ra o'z o'g'limga --senga ma'lum bo'lasmidi? Nega har bir narsaga yetkan **aqling shunga qolg'anda oqsaydir**.Nega yong'an yurakimga yana sen ham zahar sochasan?!

Titralib va to'lqinlanib aytilgan bu so'zlar Otabekni o'kintirdi,o'lganning ustiga chiqib tepish qabilidan bo'lg'an o'z hujumining haqsiz ekaniga tushundi.

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanidan olingan ushbu parchada kattalar nutqiga oid evfemik birliklar berilgan. Quruqqa olmoq—o'z aybini bila turib tan olmaslik, yengil muhokama—kalta o'y, qatli om uchun yig'ilgan—o'ldirish, qirib yuborish uchun to'plangan, jonivorlar—hayvonlar, qisqalig'ing—aqling pastligi, o'z qo'limiz bilan o'zimiznikini kesmoq—vatanga xiyonat qilmoq, aqli oqsamoq—noto'g'ri fikrlamoq

O'zbek xalqi islom diniga e'tiqod qilganligi sababli,ularning turmush tarzi islomiy an'ana va urf-odatlar bilan yo'g'rilgan.Oiladagi muhit, farzandlar tarbiyasi sharqona qarashlar orqali namoyon bo'ladi.Odob-axloq normalariga har bir oila farzandi amal qilishi shart.Ota va o'g'il o'rtasidagi munosabatlar namunaviy tarzda bo'lishi kerak. Otabek va uning Otasi Yusufbek hoji o'rtasidagi suhbatda xonlikda bo'layotgan siyosiy vaziyat to'g'risida gap borgan.Ota va o'g'il o'rtasidagi muloqot jarayonida odob doirasidan

chiqmaslik, qo'pol so'zlar bilan so'zlashish o'rniga yumshoq ifodalar bilan so'zlashish nutqiy madaniyatni oshirishga xizmat qiladi. Evfemizmlar ham lingvokulturologik birliklardan biri bo'lib tildagi madaniylikni ta'minlab turuvchi vositalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.J. Omonturdiyev "Professional nutq evfemikasi". Toshkent. "Fan" nashriyoti. 2006, 3-6 b
2. A. Qodiriy "O'tkan kunlar" Toshkent. "O'qituvchi" 1980.
3. Sh. Usmonova "Lingvokulturologiya". Darslik. 2019. 118-124 b